



## PRESS-RELIZ

2022-yil 20-dekabr

### Mahalliyashtirish dasturi ijrosiga bag‘ishlangan matbuot anjumani to‘g‘risida

**2022-yil 20-dekabr kuni Navoiy mashinasozlik zavodida “Mahalliyashtirish dasturi ijrosi bo‘yicha kombinatda olib borilayotgan ishlar, qo‘lga kiritilgan natijalar va istiqboldagi rejalar” mavzusida navbatdagi matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi.**

Matbuot anjumanida “NKKM” AJ Xaridlarni tashkil etish va metodologiyasini takomillashtirish bosh boshqarmasi boshlig‘i Ma’rufjon Amonov, “NKKM” AJ Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha direktori Xolmamat Raupov, Navoiy mashinasozlik zavodi direktori Jahongir Hayitov, OAV vakillari va jurnalistlar ishtirot etishdi.

Mahalliyashtirish dasturini izchil tatbiq etish nafaqat valyuta mablag‘larini tejash, balki ishlab chiqarish hajmini oshirish, innovatsiya va nou-xaular, kapital qo‘yilmalar, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini keng jalb etish, pirovard natijada yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minalash, aholining turmush darajasini yana-da yaxshilashga olib keladi. Birgina, 2008-2022-yillarda kombinatda 160 dan ortiq loyiha doirasida qariyb 1,5 mingga yaqin yangi mahsulotlar o‘zlashtirildi va 400 mln dollardan ortiq valyutani iqtisod qilingani buning isbotidir.

Shu maqsadda, kombinatda mahalliyashtirish dasturini faoliyatga tatbiq etishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu borada aniq dasturlar, yo‘l xaritalari ishlab chiqilib, yangi mahsulot turlarini o‘zlashtirish, kooperatsion aloqalar geografiyasini kengaytirish yildan-yilga rivoj topib bormoqda. Import o‘rnini bosuvchi tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar, ehtiyyot qismlar, xomashyo va materiallar ishlab chiqarish o‘zlashtirilmoqda.

Agar buni aniq raqamlar misolida keltiradigan bo‘lsak, birgina, 2022-yilda 167 ta loyiha bo‘yicha 550 mldr so‘mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan sanoat kooperatsiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan 4,8 trln so‘mlik mahsulotlar xarid qilindi. Mahalliyashtirishni oshirish evaziga importni qisqartirishning reja ko‘rsatkichlari bo‘yicha jami 47,2 mln dollar ekvivalentiga teng bo‘lgan 167 ta raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi loyihalarda mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Shuningdek, mazkur qaror doirasida 114 ta yangi va kengaytirilgan loyihalar bo‘yicha 31,3 mln dollarlik mahsulotlar ishlab chiqarish rejalarashtirilgan bo‘lib, amalda 32,2 mln dollarlik mahsulotlar mahalliyashtirildi. Navoiy mashinasozlik zavodi quvvatini kengaytirilishi hisobiga 2022-yilda sharli tegirmon, yangi turdag'i nasoslar

hamda yangi turdag'i dastgohlar ishlab chiqarish yo'lg'a qo'yildi. Misol uchun, joriy yilda import o'rnini bosuvchi hajmi 163 kub metr bo'lg'an sharli tegirmon ilk bor Navoiy mashinasozlik zavodida ishlab chiqarildi.

Yil boshida kombinatda kooperatsiyani kengaytirish evaziga importni qisqartirish maqsadli ko'rsatkichlari qariyb 54 mln dollarga yaqin import o'rnini bosuvchi potensial ishlab chiqaruvchilar bilan xomashyo, butlovchi va ehtiyyot qismlar o'zlashtirish mo'ljallangan edi. Hozirga qadar 51 mln dollarlik mahsulotlar o'zlashtirilib, prognoz 104,3 foizga bajarildi. Yil yakuniga qadar esa ushbu ko'rsatkichni 55,7 mln dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

So'nggi yillarda kombinatning ishlab chiqarish extiyoylari uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarning quvvatlarida kaustik soda, konveyer tasmasi, burg'ulash uskunasi uchun ehtiyyot qismlar, har xil turdag'i filtrlar va gidravlik moylar va boshqa shu kabi mahsulotlar o'zlashtirildi.

Kombinat tashabbusi bilan respublikada birinchi bo'lib import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni o'zlashtirish bo'yicha "Shatakka olish" mexanizmi joriy etildi. Hozirda bu borada "Gidro Stanko Servis" MChJ, "Navpromlitmash" MChJ, "Aziya gormash" MChJ QK, "Karmana sharqona invest" MChJ, "Latem metall" MChJ korxonasi va boshqa shu kabi korxonalar bilan e'tirofga arzigulik hamkorlik yo'lg'a qo'yildi.

"Navoiy KMK" AJ tomonidan yil davomida o'tkazilgan hududiy yarmarkalar doirasida jami 2,7 trln so'mlik 2 321 ta shartnomalar imzolanib, import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni mahalliy korxonalarda o'zlashtirish va kooperatsiya aloqalari asosida xarid qilish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlar savollariga atroflichcha javob berildi.

Tadbirdan so'ng OAV vakillari uchun zavod sexlariga press-tur tashkil etildi.

**Murojaat uchun ma'lumotlar:**

"NKMK" AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: +99879 227-75-88, 227-74-73

"NKMK" AJ rasmiy veb-sayti: [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)

"NKMK" AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

[t.me/ngmkofficial](https://t.me/ngmkofficial), [www.fb.com/nkmkofficial](https://www.fb.com/nkmkofficial), [instagram.com/nkmk.official](https://instagram.com/nkmk.official),  
[www.youtube.com/nkmkofficial](https://www.youtube.com/nkmkofficial), [www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/](https://www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/)